



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2022-yil 30 – aprel

2/24-4/1-2197-son

Oliy ta’lim muassasalari rektorlari  
va filiallar direktorlariga

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2022-yil 17-apreldagi 08/12864-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasining Tokio shahridagi elchixonasi ma’lumotiga muvofiq quyidagilarni ma’lum qilamiz:

Yaponiyaning “Goi tinchlik” jamg‘armasi (The Goi Peace Foundation) Yaponiya ta’lim, ma’daniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi YuNESKO ishlari bo‘yicha Yaponiya Milliy komissiyasi ko‘magida yoshlar o‘rtasida “Mening qadriyatlarim” (“My Values”) mavzusidagi eng yaxshi insho yozish xalqaro tanlovini o‘tkazmoqda.

Insho ingliz yoki fransuz tillarida 700 so‘zgacha hamda yapon tilida 1600 so‘zgacha bo‘lishi lozim.

Tanlov ishtirokchilari o‘z insholarini [www.goipeace.or.jp](http://www.goipeace.or.jp) veb-sahifasi va [essay@goipeace.or.jp](mailto:essay@goipeace.or.jp) elektron pochta manzili orqali on-line tarzda taqdim etishlari kerak.

Insholarni on-line tarzda taqdim etish oxirgi muddati – **2022-yil 15-iyun.**

Tanlovning bosh sovrini: 100 ming yen (taxminan 840 AQSh dollari) va esdalik sovg‘alari.

Batafsil ma’lumot, shartlar va zarur hujjatlar ro‘yxati ilova qilinmoqda. Shuningdek, mazkur insho tanlovi to‘g‘risidagi ma’lumot bilan tashkilotchilarning <https://www.goipeace.or.jp/en/work/essay-contest/> rasmiy saytida tanishish mumkin.

Ma’lumot uchun yuborilmoqda.

Ilova: 3 b.

Vazirning  
birinchi o‘rinbosari



K. Karimov